

1945-1970 YILLARDA SHAHAR VA QISHLOQ MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING MUTAXASSIS KADRLAR BILAN TA'MINLANISHI: YUTUQ VA MUAMMOLAR

Irodaxon Rasulovna Tishabayeva

Quvasoy shahar 3-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda sovet hokimiyati tomonidan maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar ilmiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalar qatnovi va demografik ko'rsatkichlari tadqiqot doirasiga tortilgan.

Kalit so'zlar: kadr, maxsus, ta'lim, doimiy, lavozim, ma'lumot, yo'nalish, xodim.

1945-1970 PROVISION OF URBAN AND RURAL PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS WITH EXPERT PERSONNEL: ACHIEVEMENTS AND PROBLEMS

ABSTRACT

In this article, the measures implemented by the Soviet authorities in the field of preschool education in Uzbekistan are highlighted on the basis of scientific, historical literature and sources. Also, preschool educational institutions, children's transportation and demographic indicators were included in the scope of research.

Keywords: personnel, special, education, permanent, position, information, direction, employee.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlatimiz rahbari e'tiboridagi muhim masalalardan biriga aylangan. Respublikamizda maktabgacha ta'lim muassasalarini faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalarni qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalalarida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Urushdan keyingi dastlabki yillarda maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyat yuritgan bo'lsa-da, ularning tarixi maxsus tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Bu masala sovet ta'lim tizimi tarixiga oid ayrim tadqiqotlarda qisman yoritib o'tilgan. Shu o'rinda qayd etish kerakki, O'zbekistonda xalq ta'limi tarixini o'rganishga asosan, XX asrning 50–70-yillaridan e'tibor qaratilgan bo'lib, bu tadqiqotlarda maktabgacha tarbiya muassasalari tarixi bo'yicha juda kam ma'lumotlar berilgan. 1970-1990-yillarda yaratilgan M.Badalova, S.Selyunina, O.Djumabayeva, K.Mendayaxova O.Ishanxodjayeva, R.Zuxritdinovlarning tadqiqotlari O'zbekistondagi va boshqa milliy respublikalardagi pedagogika tarixini yoritishga bag'ishlangan. Ularda maktabgacha tarbiya rivojlanishining pedagogik asoslari tadqiq etilgan hamda maktabgacha tarbiya muassasalari sonining ortib borishi va mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanishi kabi masalalarga alohida e'tibor berilgan.

Maktabgacha tarbiyaning pedagogik jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan N.Konstantinovning ilmiy-tadqiqot materiallaridan pedagogika bilim yurtlari uchun nashr etilgan darsliklarda keng foydalanilgan.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, 1945-1991 yillarning davriy chegarasida maktabgacha ta'lim muassasalarining ko'payib borishi davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Ushbu yillarda maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar qamrovining oshib borishi, shahar va qishloq bog'chalaridagi o'rtasidagi tafovut, solishtirish, qiyoslash usullari orqali yoritishga harakat qilingan.

NATIJARLAR

Urushdan keyingi dastlabki yillarda maktabgacha tarbiya muassasalari ko'payib borgani tufayli tarbiyachi xodimlarga bo'lgan ehtiyoj ham oshib borgan. 1945-1991-yillarda respublikada bir tomondan bog'chalar sonining ko'payishi va unga bo'lgan talabning oshib borishi kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, maktabgacha tarbiya muassasalarini kadrlar bilan ta'minlash yetarli darajada olib borilmagan. 1945-yil 1-sentabr holatiga respublika bo'yicha 1585 ta tarbiyachi va mudiralar faoliyat olib borgan bo'lsa, bulardan shahar maktabgacha tarbiya muassasalarida 1111 nafar, qishloq maktabgacha tarbiya muassasalarida 474 nafarni tashkil qilgan. Shundan, Andijon oblasti shaharlarida 65 ta, qishloqlarida 54 ta, jami 119 nafar mudira va tarbiyachilar ishlagan. Farg'ona oblasti shaharlarida 99 ta, qishloqlarida 43 ta, jami 97 nafar tarbiyachi va mudiralar, Namangan oblastida esa tegishli mutaxassislik diplomiga ega bo'lgan tarbiyachi va mudiralar bo'lmagan¹ [1.].

¹ O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 4781-ish, 241-varaq.

1945-1970-yillarda maktabgacha tarbiya muassasalarida kadrlar ma'lumoti turlicha bo'lgan. Umuman olganda, mazkur davrda maktabgacha ta'lim tizimida oliy ma'lumotli kadrlar yetishmovchiligi kuzatilgan. Bog'cha va yaslilarga 3-4-sinf ma'lumotiga ega xotin-qizlar ham ishga olingan. Xususan, 1948-yilda Namangan oblasti To'raqurg'on rayonining Arg'un qishlog'i Dmitrov nomli kolxoz qoshida ochilgan bog'cha mudirasi Davidova 3-sinf ma'lumotiga, yoki Stalin kolxoz bog'chasi mudirasi O'rmonova Mastona 4-sinf ma'lumotiga ega bo'lgan¹ [2.].

1940-1970-yillar oralig'ida bog'chalarda faoliyat yuritgan xodimlar soni oshib borgan. Respublika bo'yicha 1940-yilda bog'cha mudiralari va tarbiyachilari 2500 nafar bo'lgan bo'lsa, 1960-yilda ular 7100 taga yetgan. Shuningdek, 1967-yilga kelib maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari 15800 nafarni tashkil etgan² [3.]. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qishloq maktabgacha tarbiya muassasalarida oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotiga ega tarbiyachi va mudiralar juda sekinlik bilan ko'paygan. Chunki, qishloq maktabgacha tarbiya muassasalari asosan mavsumiy bo'lib, yilda 6-10 oy faoliyat yuritgan. Yilning qolgan qismida tarbiyachilar ishsiz qolgan. Shu bilan birga, mavsumiy bolalar bog'chalarida ish haqi to'lashda xodimning ma'lumoti e'tiborga olinmagan.

Kolxozlarda ochilgan bolalar bog'chalarida ulardagi bolalar sonidan qat'iy nazar mudira bilan birgalikda 2-3 kishi faoliyat yuritgan. Ayrim bolalar maydonchalarida bitta mudira va oshpaz ishlagan. Xususan, 1948-yilda Namangan oblasti Yangiqo'rg'on rayoni Voroshilov kolxozi bog'chasida 19 nafar tarbiyalanuvchilar bo'lib, unda 3 nafar xodim faoliyat yuritgan. Yana bir misol shundan iboratki, ushbu rayonning Telman nomli kolxoz bog'chasida 56 ta tarbiyalanuvchilar bo'lib, ularga ham 3 nafar xodim xizmat qilgan. Shuningdek, Kommuna kolxozida 40 nafar bolalarga 2 ta xodim qaragan³ [4.]. Bunday bo'lishiga sabab, o'sha davrdagi kolxoz rahbarlari bog'chalardagi xodimlar sonini o'zlari belgilagan. Nizomga ko'ra, 25 nafar tarbiyalanuvchiga 1 nafar tarbiyachi va 1 nafar enaga ajratilishi lozim bo'lgan, ammo yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston SSR kolxoz bog'cha va yaslilarida ishlar qoida bo'yicha tashkil etilmagan.

Respublika bo'yicha qishloq doimiy bog'cha mudiralarining 2,1 foizi oliy ma'lumotli, 62 foizi o'rta ma'lumotli, 35,2 foizi tugallanmagan o'rta ma'lumotli edi. Bu raqamlardan shuni xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlik lavozimlarida ham maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan ayollar ishlagan. Kadrlar yetishmovchiligining asosiy sabablaridan biri, maktabgacha tarbiya yo'nalishi mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasasi sanoqli bo'lib, bu borada qishloq xotin-

¹ Namangan VDA, 266-fond, 1-ro'yxat, 210-ish, 7-varaq.

² Народное хозяйство Узбекской ССР в 1967 г. – Ташкент, 1968. – С. 268.

³ Namangan VDA, 266-fond, 1-ro'yxat, 210-ish, 8-varaq.

qizlarining imkoni cheklangan edi. Shu sababli, qishloq bog'chalarining mudiralari va tarbiyachilari orasida oliy ma'lumotli xodimlar juda ozchilikni tashkil qilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, respublika qishloqlaridagi maktabgacha tarbiya muassasalarida ishlayotgan xodimlarning tarbiyachi-pedagog mutaxassisligi bo'yicha ma'lumot olish darajasi juda sekinlik bilan o'sib borgan. Urushdan keyingi dastlabki yillarda tegishli mutaxassislikga ega bo'lgan xodimlar soni sanoqli bo'lsa, keyingi yillarda ularning salmog'i oshib bordi. Shunday bo'lsa-da, har davrda mutaxassis kadrlar etishmovchiligi kuzatilgan. Maktabgacha tarbiya muassasalari ishchilarining 95 foizini ayollar tashkil etib, ular eng kam maosh oladigan kasblar qatoriga kirgan. Mavsumiy bolalar bog'chalari xodimlari kolxoz ishchilar bo'lgani holda, ularga alohida ish haqi to'lanmagan.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida mutaxassis kadrlarga haq to'lashning adolatli hal etilmagani, mutaxassislar salohiyatini oshirib borishga e'tibor berilmasligi kabi subyektiv omillar sohada mutaxassislar yetishmasligiga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 4781-ish, 241-varaq.
2. Namangan VDA, 266-fond, 1-ro'yxat, 210-ish, 7-varaq.
3. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1967 г. – Ташкент, 1968. – С. 268.
4. Namangan VDA, 266-fond, 1-ro'yxat, 210-ish, 8-varaq.